

### **Dunyoqarash va uning tarkibi**

***Ravshananov Samandarbek Islom o'g'li***

*Email : [muminovhajrilla@gmail.com](mailto:muminovhajrilla@gmail.com)*

*Menboyev Azizbek Toyir o'g'li*

*Email : [mengboyevazizbek2005@gmail.com](mailto:mengboyevazizbek2005@gmail.com)*

***Qilichev Murodbek Norboy o'g'li***

***Emeil: [Qilichevmurod@gmail.com](mailto:Qilichevmurod@gmail.com)***

***Anotatsiya:** Bu maqola “Dunyoqarash”ning asosiy tushunchasini o'z ichiga oladi va uni tafsilotlar bilan ko'rsatadi. Maqola davomida, “Dunyoqarash” so'zining ma'nosi, tarkibi, tuzilishi va o'ziga xosliklari o'rganiladi. Uni davlat va xalqaro darajada qanday tan olish, qanday tashkil etilishi va uning vazifalari va funksiyalari to'g'risida ma'lumotlar beriladi. Maqola, universitetning maqsadlari, o'qish jarayonlari, ta'lim tizimi, o'qituvchilar kadri, ilmiy tadqiqotlar va akademik faoliyatlar, tadbirlar va boshqa asosiy ko'rsatkichlar haqida ma'lumotlar taqdim etiladi. Maqola, “Dunyoqarash” tushunchasining universitet tizimida qanday o'rnini egallaganligi va uning o'qish-tarbiya jarayonlari, ilmiy faoliyatlar va uning jamoatga ta'siri to'g'risida muhokama qiladi.*

***Kalit so'z:** Dunyoqarash, kalit, borliq, hissiyot, aqliy, jamiyat, ijtimoiy, o'ng, dunyoni tushunish, inson ongi, hissiyot, farosat*

Dunyoqarash, bu avvalo, insonning zaruriy ravishda dunyoni anglashi, tushunishi, bilishi natijasida yuzaga keladigan qarashlar sistemasidir. Dunyoqarash dunyoning inson ongida o'ziga xos in'ikosi bo'lib, u insonning dunyoni va o'z-o'zini anglashining alohida shaklidir. Dunyoqarash inson-ning uni qurshab turgan dunyoga bo'lgan munosabatlarini ifodalaydigan muayyan ko'nikmalari, bilim-laridir. Dunyoqarash, shu bilan birga, insonning dunyoni

ma'lum darajada tushu-nishi, anglashi, bilishi, baholashi va shular asosida dunyoni amaliy o'zlashtirishi hamdir. U insonning dunyoni bir butun yoki turli-tuman holda ko'rishi, idrok etishi, tasavvur qilishi, tushunishi, insonning dunyodagi o'z o'rni va rolini belgilashi hamdir.

Dunyoqarash ijtimoiy-tarixiy xarakterga ega. Bu jihatdan har bir davrning, har bir avlodning, har bir kishining, har bir jamoaning, har bir sinfnig o'ziga xos dunyoqarashi bo'ladi. Shunga ko'ra dunyoqarash o'ziga xos alo-hida, maxsus va umumiy xususiyatlarga ega. Dunyoqarashning ijtimoiy o'z-o'zini anglash sifatidagi o'ziga xos xususiyati shundaki, u hayotiy mu-him hodisa va voqealarga kishi va kishilarning, ularning o'z hayotiy maqsad va manfaatlari asosida shaxsiy mavqelaridan kelib chiqqan holdagi munosa-batlarining ifodalanishidir. Shunga ko'ra dunyoqarash insonning dunyoni oddiy umumlashtirib aks ettirishi bo'lmay, balki u dunyoni insonning amaliy qayta o'zlashtirishining natijasi sifatidagi bilimlaridir. Dunyoqarashning o'ziga xos xususiyatlaridan biri haqiqat, ya'ni olamning haqiqiy manzarasini, holatini bilishdan iborat.

Dunyoqarash bir butun uyushma bo'lib, o'zida uch asosiy holatni: bilish - baholash - hatti-harakatni birlashtiradi. Xuddi shuning uchun ham dunyoqarash individual, jamoaga xos, ommaga xos bo'ladi. Dunyoqarashning 3-ta eng muhim tomoni mavjud. Ular qo'yidagilardan iborat:

Dunyoni his qilish; Dunyoni tasavvur qilish; Dunyoni tushunish.

Kishilarning aqliy va hissiy tajribalari dunyoqarashning turli shakllarida turli tarzda o'z ifodasini topadi. Uning hissiy-ruhiy tomonini dunyoni his etish deb atasak, kishining olam haqidagi tasavvurlarini dunyoni idrok qilish deyimiz. Dunyoqarashning intellektual tomonini dunyoni tushunish tashkil etadi.

Dunyoqarashning 2 ta eng muhim qutbi mavjud:

1. Aqliy (aql),
2. Hissiyot (hissiy).

Turli dunyoqarashlarning «aqliylik koeffitsienti» tur-licha bo'ladi. Shuningdek, ularning his-tuyg'ularga asoslanganligi darajasi ham farq qiladi. Biroq bundan qat'iy nazar, har qanday dunyoqarash ikkala qutbni ham o'z ichiga oladi.

hatto eng yetuk dunyoqarash ham faqat aqliylik komponentidan iborat emas va aksincha hatto eng rivojlanmagan dunyoqarash ham faqat his-tuyg'ulardan iborat emas, chunki dunyoqarash birgina aql mahsuli emas, u inson his-tuyg'ulariga asoslanadi va aksincha.

Dunyoqarashning 2 ta darajada namoyon bo'ladi:

1. Kundalik ong;
2. Nazariy ong.

Dunyoqarash integral tuzilma bo'lib, uning barcha elementlari o'zaro aloqadordir. Dunyoqarash strukturasi eng asosiy o'rinni umumlashtirilgan bilimlar egallaydi. Ushbu bilimlar hajmi qanchalik katta bo'lsa, inson dunyoqarashi ham shunchalik keng bo'ladi.

Umuman, dunyoqarash-bu kishilarning faqat dunyo to'g'risidagi hozirgi aniq tasavvurlari va tushunchalari hamda bilimlarining yig'indisidan iborat bo'lmay, balki u butun insoniyat hayoti sharoitining anglab olinishini ham, butun qadriyatlar sistemasini ham, o'tmish obrazlari, hozirgi realliklarni, kelajakning mo'ljallarini ham o'z ichiga oladi. Dunyoqarash, shu bilan birga, o'zida kishilarning u yoki bu turmush tarzini mo'ljallashi yoki rad qilishi, ularning axloqiy yurish-turish me'yorlaridan tortib, bir butun madaniyatgacha bo'lgan hamma ma'naviyliklarni mujassam-lashtirgan bo'ladi. Dunyoqarashda butun insoniyat hayotiga oid ma'naviylik bilan bahramandlik, kishilarning insoniyat hayotining mazmunini anglash tajribasi, o'z taraqqiyotida nimalarnidir butunlay uloqtirib tashlash, nimalarnidir juda avaylab asrash kabi xususiyatlar ham bo'ladi.

Jamiyatning rivojlanib borishi bilan insonning amaliy bilish faoliyati ham rivojlanib boradi. Bu o'z navbatida dunyoqarashning ham rivojlanishini taqozo qiladi. Insonning dunyoni amaliy o'zlashtirishining o'zgarib bo-rishi bilan uning ongidagi in'ikos bo'lgan dunyoqarash ham o'zgarib, rivojlanib, yangi-yangi tarixiy shakllari paydo bo'lib boradi.

Shunday qilib dunyoqarash-bilim va baho; aql va his-tuyg'u, dunyoni tushunish va uni his qilish, aql-farosat bilan isbotlash va ishonch, e'tiqod va

e'tiqodsizlik, shaxsiy va ijtimoiy, individual va ommaviy, an'anaviy va noan'anaviy (ijodiy) fikrlashning murakkab qarama-qarshi to-monlarining yig'indisidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Falsafa. Q. Nazarov tahriri ostida. Toshkent, 2000.
2. Filosofiya. Pod red. V.P. Koxanovskogo.- Rostov-na-Donu, 1999.
3. Falsafa. E. Yusupov tahriri ostida. Toshkent, 1999.
4. Osnov filosofii. Pod. red. M. Axmedovoy i V. Xana. Toshkent, 1998
5. <https://innovativepublication.uz/index.php/jelsi/article/download/439/343>
6. <http://pedagoglar.org/index.php/04/article/view/1629>